

Sherali Jo'rayev**"Sarbon"**

Visit "[Sarbon](#)" on MotoLyrics.com

SARBON Ey sarbon, ohista yur,
Oromi jonim boradur
Tandan dilu jonim olib,
Ul dilistonim boradur. Qolurmu men olis bo'lib,
Bechora-yu ma'yus bo'lib,
Qalbim firoq tig'i tilib,
To ustixonim boradur. Ey sarbon, ohista yur,
Oromi jonim boradur. Sarkash nigorimdan judo,
Ayshu qarorim bebaqo,
Manqalda otashdek qaro
O't birla qonim boradur. Cheksamda zulmni dodini,
Ham va'dalar barbodini,
Ko'ksunda tutgum yodini
Toki zabonim boradur. Ey sarbon, ohista yur,
Oromi jonim boradur. To'xtat biroz, ey, sarbon,
Karvonni qilma tez chunon,
Sarviravon ishqida jon
Ruhi ravonim boradur. Qayt, ko'zlarimga qo'y oyoq,
Ey, dil piri, ketma yiroq,
Ey nozanin, ko'kka bu choq
Ohu fig'onim boradur. Ey sarbon, ohista yur,
Oromi jonim boradur. Qilma fig'on, ey Sa'diyo,
Hech arzimas ul bevafo,
Toqatni qo'ymas bu jafo
Aqlu imonim boradur. Ey sarbon, ohista yur,
Oromijonim boradur.

Visit [Sherali Jo'rayev](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.